

TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Xolmirzayeva Shaxnoza Rahimberdiyevna

Universitu of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va kontseptual asoslarini o'rganadi. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va nazariy asoslari ko'rib chiqiladi. Metodika qismida adabiyotlar tahlili va pedagogik metodlardan foydalanilgan. Natijalar talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishning asosiy tamoyillari va mexanizmlarini ko'rsatadi. Muhokama qismida ushbu asoslarning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: talabalar, muloqot madaniyati, pedagogik asoslar, psixologik tamoyillar, kontseptual asoslar

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL AND CONCEPTUAL BASIS OF DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATION CULTURE

Abstract. The article examines the pedagogical-psychological and conceptual foundations of developing students' communication culture. The introduction discusses the relevance and theoretical bases of the topic. The methods section employs literature analysis and pedagogical models. The results present the main principles and mechanisms for forming communication culture in students. The discussion addresses the practical significance of these foundations and future research directions.

Key words: students, communication culture, pedagogical foundations, psychological principles, conceptual bases

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. Статья исследует педагогическо-психологические и концептуальные основы развития культуры общения студентов. Во введении рассматривается актуальность и теоретические основы темы. В разделе методов используется анализ литературы и педагогические модели. Результаты представляют основные принципы и механизмы формирования культуры общения у студентов. В обсуждении анализируется практическое значение этих основ и направления будущих исследований.

Ключевые слова: студенты, культура общения, педагогические основы, психологические принципы, концептуальные основы

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning muloqot madaniyati muhim o'rin tutadi, chunki u nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki kasbiy faoliyatga ham ta'sir

qiladi. Muloqot madaniyati deganda, shaxslararo munosabatlar, axborot almashinuvi va hamkorlik qobiliyatlarini tushunamiz. Bu madaniyatni rivojlantirish pedagogik va psixologik tamoyillarga asoslanadi, masalan, motivatsiya, refleksiya va subyekt-subyekt munosabatlari.

Ushbu mavzuning dolzarbligi ta'limga ijodiy yondasha oladigan shaxsni rivojlantirishda muloqot madaniyati eng muhim resuslardan biridir. Muloqot madaniyatni rivojlantirish oliy ta'lim talabasini universal xususiyatlarni egallashda, jamiyatning ijtimoiy talablarini qondirishga va yuqori professional bilimlarini egallashga yordam beradi. Aslida ham hozirgi zamonaviy ta'limning maqsadi –sifatli kadrlar tayorlash, talabani shaxs sifatida rivojlantirish va uning (MEN) ligini yuqori darajaga olib chiqishdir. Ushbu maqolada yuqoridagi fikrlar haqida so'z borib, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va konseptual asoslari keltirilgan.

Maqolaning maqsadi - talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va kontseptual asoslarini tahlil qilish va ularning amaliy ahamiyatini ko'rsatish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar muloqot madaniyatining shaxs rivojlanishidagi o'rne, uning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri hamda ta'lim-tarbiya tizimidagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Psixolog olimlar tomonidan muloqot shaxs faoliyatining yetakchi omillaridan biri sifatida talqin etilgan. Jumladan, L.S. Vygotskiy muloqotni shaxsning ijtimoiy tajribani egallashidagi asosiy mexanizm deb hisoblaydi. A.N.Leontev va S.L. Rubinshteyn asarlarida muloqot faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilib, uning motivatsion va mazmunij jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Pedagogik tadqiqotlarda esa muloqot madaniyati o'qituvchi va talaba o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlovchi muhim kompetensiya sifatida izohlanadi. I.A. Zimnyaya, V.A.Kan-Kalik, N.V. Kuzmina ishlarida pedagogik

muloqot madaniyati ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida baholanadi. Ularning tadqiqotlarida muloqotning axloqiy, nutqiy va psixologik komponentlari tizimli tahlil qilingan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham ushbu masala keng yoritilgan. Xususan, R.H.Jo'rayev, N.A.Muslimov, Sh.Q.Sharipov tadqiqotlarida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirishning metodik va tashkiliy asoslari ochib berilgan. Ushbu ishlar talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirish pedagogik-psixologik, ijtimoiy va madaniy omillarni o'zida mujassam etgan murakkab jarayon bo'lib, u tizimli va konseptual yondashuvni talab etadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari sharoitida mazkur muammoni kompleks tadqiq etishga ehtiyoj mavjudligi aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotda talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va konseptual asoslarini aniqlash maqsadida quyidagi 1-jadvaldagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Talabalarining muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va konseptual asoslarini aniqlashga qaratilgan metodlar tavsifi

1-jadval

<i>No</i>	<i>Metod nomi</i>	<i>Metodning mazmuni</i>	<i>Qo'llanish maqsadi</i>
1	Nazariy tahlil	Ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish	Muloqot madaniyati tushunchasini aniqlash
2	Kuzatish	Talabalarining o'quv va muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarini tahlil qilish	Amaliy muloqot darajasini aniqlash
3	Suhbat	Talabalar bilan rejalashtirilgan savol-javob	Subyektiv fikr va munosabatlarni aniqlash

4	So'rovnoma asosida yig'ish	Yozma anketa asosida ma'lumot yig'ish	Kommunikativ kompetensiya darajasini baholash
5	Diagnostik testlar	Psixologik va pedagogik testlar	Muloqot ko'nikmalarini aniqlash
6	Tajriba-sinov	Maxsus pedagogik shart-sharoitlar yaratish	Taklif etilgan metodikaning samaradorligini aniqlash
7	Statistik tahlil	Natijalarni foiz va diagrammalar asosida tahlil qilish	Ilmiy xulosalar chiqarish

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari quyidagilardan iborat: motivatsiya jarayonini faollashtirish, insoniy yo'naltirilganlik va amaliyot bilan bog'lanish. Psixologik tamoyillar esa, refleksiya, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish va dialogik o'zaro ta'sirga asoslangan. Kontseptual asoslar professional fikrlash madaniyatini o'z ichiga oladi, bu esa shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy komponentlarni birlashtiradi.

Natijada muloqot madaniyatining uchta komponenti aniqlandi: kommunikativ (axborot almashinuvi), interaktiv (hamkorlik) va pertseptiv (empatiya). Tadqiqotda talabalarda muloqot madaniyati rivojlanganligi natijasida kasbiy ko'nikmalar 10-15% ga oshgani kuzatildi. Bundan tashqari, demokratik rahbarlik uslubi muloqotni samarali qilishda muhim rol o'ynaydi.

Natijalarni muhokama qilganda, talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish oliy ta'limda mustaqil o'rganish strategiyalarini shakllantirish bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Psixologik to'siqlar, masalan, ijtimoiy farqlar va emotsional befarqlik, muloqotni qiyinlashtirishi mumkin, ammo ularni dialogik usullar orqali bartaraf etish mumkin. Kontseptual jihatdan, bu madaniyat shaxsiy rivojlanish va jamiytdagi hamkorlikni ta'minlaydi, ammo kelajakdagi tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning ta'sirini o'rganish kerak.

Ushbu asoslarning amaliy ahamiyati talabalarni ijtimoiy moslashuvchanlikka tayyorlashda namoyon bo'ladi, bu esa ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni talab qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda albatta ularning psixologik portretlarini, temperament va xarakter xususiyatlarini o'rgangan holda ularga muloqot madaniyatini rivojlantirish yo'llarining har bir turlarini qo'llab ko'rish kerak. Har bir talabaning individual xususiyatlari har xil ularning motivlari ya'ni faoliyatga undovchi kuchlari ham turlichadir. Shuning uchun muloqot madaniyatini rivojlantirish mashqlari va treninglarining hammasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda ko'plab metodlar bilan bir qatorda, savol-javob, suhbat hamda trening metodlari muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish pedagogik-psixologik va kontseptual asoslarga tayanib, ta'lim jarayonini samarali qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim amaliyotchilari uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanishining muammolari. – M.: Pedagogika, 1984.
2. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – M.: Logos, 2002.
3. Kan-Kalik V.A. Pedagogik muloqot asoslari. – M.: Prosveshcheniye, 1990.
4. Kuzmina N.V. Pedagogik mahorat va pedagogik muloqot. – L.: LGU, 1985.
5. Leontev A.N. Faoliyat, ong, shaxs. – M.: Politizdat, 1977.
6. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – M.: Pedagogika, 1989.
7. Jo'rayev R.H. Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
8. Muslimov N.A. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2014.
9. Sharipov Sh.Q. Pedagogik muloqot va kommunikativ kompetensiya. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. Oliy ta'limni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2022.